

BANKLARDA HISOB-KITOBLARNI NAQD PULSIZ PLASTIK KARTALAR
ORQALI AMALGA OSHIRISHDA RAQAMLI AXBOROT
TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Lapasova Marg'uba Zokir qizi
O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekiston tijorat banklarida naqd pulsiz hisob-kitoblarini amalga oshirishni tahliliga oid bir qator fikrlar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Plastik kartalari, raqamli texnologiyalar, mobil banking, SMS-banking, Bank-Mijoz, chakana bank xizmatlari, bank tizimi.*

Kirish. Hozirgi kunda mamlakatimizda tijorat banklari tomonidan mijozlarga plastik kartalar ochish jarayoni zamonaviy (EISA) dasturlari orqali tezda tayyorlab berilyapti.

Asosiy qism. Moliyaviy globallashuv sharoitida yirik korporativ mijozlarni jalb qilish bo'yicha banklar o'rtaisdagi raqobat kuchaygan bo'lib, O'zbekistonda bank xizmatlari bozori bank daromadi va raqobatdoshligini ta'minlashning istiqbolli yo'nalishilaridan biriga aylanmoqda. Ayni paytda, bank xizmatlari bozorida chakana xizmatlar alohida o'rinn tutib, ular asosan aholining moliya-bank xizmatlariga bo'lgan talabini qondirishga yo'naltirilmoqda. Ma'lumki, chakana bank xizmatlari o'zing bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi, xususan, asosiy iste'molchilar sifatida jismoniy shaxslar maydonga chiqadi, operatsiyalar hajmi kichik bo'lsada, korporativ bank xizmatlariga nisbatan xarajatlar yuqoriq bo'ladi va xizmatlar shaxsiy talablarni qondirishga yo'naltirilgan bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich Oliy Majlis murojotnomasida "Banklar faoliyatiga raqamli texnologiyalarini keng joriy etish e'tiborimiz markazida bo'ladi" deb ta'kidlagan. Respublikamiz tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan chakana bank xizmatlari hajmi yil sayin ortib bormoqda. Aholiga mo'ljallangan omonatlar soni ortib, plastik kartochkalar bilan operatsiyalar ko'lami oshmoqda, is'temol va ipotekakreditlarini berish amaliyoti takomillashmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagagi 2751-qarorida "naqd pulsiz hisob-kitob tizimini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish, plastik kartochkalarga, terminallarga va tegishli uskunalarga bo'lgan talab-ehtiyojlarni qondirish, shuningdek, pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini kamaytirishga" aloxida e'tibor qaratilgan

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Plastik kartochkalar asosida naqd pulsiz hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2006-yil 3-avgustdagagi PQ-433-sonli qarori 1-bandining ikkinchi xat

boshida nazarda tutilgan bojxona imtiyozlarining amal qilish muddati 2020-yilning 1-yanvariga qadar uzaytirilsin.

Bank mikroprotsessor plastik kartochkalari, to'lov terminallari ishlab chiqaruvchilar, chakana to'lov tizimlarining protsessing markazlari olib kirlayotgan xomashyo, sarflanuvchi va butlovchi materiallardan, dasturiy ta'minot vositalaridan hamda plastik kartochkalar, terminallar, bankamatlar, infokioskalar va boshqa uskunalar ishlab chiqarish uchun litsenziyalardan samarali va qat'iyan maqsadli foydalanishni hamda ana shular vositasida hisob-kitoblar amalga oshirilishini ta'minlasin, kelgusida ularni ishlab chiqarish mahalliyashtirilsin.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi nizomi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi hamda "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida yuridik va jismoniy shaxslarning to'lov hujjatlaridan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblarini amalga oshirish tartibi belgilangan. Bugungi kunda chakana bank xizmatlarining eng ko'p ishlatiladigan turlaridan biri bu plastik karta xizmatlaridir. Plastik kartalarning banklarga va aholiga o'z qulayliklari mavjud. Shuningdek, bugungi kunda internet va elektron tizimlar orqali turli mahsulotlar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish tobora takomillashib bormoqda. Plastik kartochkalar va mobil aloqadan keng foydalanish soha taraqqiyoti uchun zamin yaratmoqda. Jumladan, iste'mol krediti, pul jo'natmalari, depozit amaliyotlari kabi yo'nalishlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich bosqichda turibdi. Plastik karta xizmatlarini yanada kengaytirishda xorij tajribasini o'rganish ham muhimdir. Plastik karta xizmatlari bo'yicha xorij tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak. Avstraliya bank-moliya tizimida mazkur to'lov turidan yigirma yildan ko'proq vaqt davomida foydalaniilmoqda. O'tgan yillar mobaynida bu borada katta tajriba to'plandi. Sohaga innovatsion g'oyalari joriy qilindi. Bugungi kunga kelib, muomaladagi plastik kartalar soni 1 kishiga 6 tadan to'g'ri kelayotgani ham buni isbotlaydi. Muomalaga chiqarilgan plastik kartalar mehnatga layoqatli aholining har biriga 6 tadan to'g'ri keladi. Kredit kartalaridan belgilangan limit doirasida foydalaniilib, plastik karta orqali yuzaga kelgan qarzdorlik mijozga qulay vaqt davomida qaytariladi. Avstraliyada asosan xalqaro "Visa", "MasterCard" hamda "American Express" bank kredit kartalaridan foydalaniiladi. So'nggi yillarda naqd pulga bo'lgan talabning kamayishi va naqd pulsiz hisob-kitoblarning kengayishi natijasida mamlakatda savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalariga o'rnatilgan to'lov terminallari soni sezilarli darajada ko'payib bormoqda. Bizning mamlakatimizda xam plastik kartalar orqali hisob-kitoblar tizimi rivojlanishi natijasida naqd pulga bo'lgan talab yil sayin kamayib bormoqda. Xususan, 2018-2019-yillarga nisbatan xozirgi kunda axoli orasida bank plastikkartalari orqali operatsiyalar va savdo sotiq ishlari amalga oishirish ishlari ko'payib bormoqda.

Xulosa. Bank kartalarining muomalasini rivojlanishi, skoring kredit tizimini joriy etish imkoniyatlari, "internet-banking", "mobil-banking", "SMS-banking" kabi xizmatlarni asta sekinlik bilan rivojlanib borishi, pul o'tkazmalari, elektron to'lov kabi xizmatlarni takomillashtirishi respublikamizda chakana bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollarini belgilaydi.

FOYDALI ADABIYOTLAR:

1. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №1, yanvar-fevral, 2014-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiniyanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi farmoni 2017-2021-yillar
3. Bekchanov M., Abduraxmanov R. Plastik karta-zamonaviy hisob-kitobvositasi. // Bozor, Pul va Kredit. №9. 2012.B.14
4. Abduvaxidov F. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi./ O'quv qo'llanma. –T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2012-y.